


**BUXORO VILOYATI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
BOSHQARMASI TASARRUFIDAGI
VILOYAT BOLALAR KUTUBXONASI**

Uslubiy bo'lim

O'quvchilarni kitobxonlikka jalb qilish usullari



Buxoro-2025



Uslubiy bo‘lim tomonidan tayyorlandi.

Tuzuvchi: M.Xayrullayeva

Muharrir: D.Muqumova

Ushbu metodik qo‘llanmada yosh avlodning ma‘naviyatini yuksaltirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan beshta muhim tashabbusning mohiyati, yoshlarni kitob mutolaasiga qiziqtirish uchun yangi usullar, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar, ko‘rik-tanlovlar hamda yozuvchi va shoirlarning asarlari yuzasidan tayyorlangan viktorina savollari tavsiya tarzida berilgan.

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish-
buyuk maqsadlarimizga erishishning
muhim kafolatidir.

Sh.Mirziyoyev

Insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli hamda davlatli bo'lishining muhim omili-bu kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish va kitob mutolaasini umr bo'yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxt-u kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning o'rni o'zgacha. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Bu haqida so'z borganda, istiqlool bizga kitobxon xalq degan azaliy yuksak mavqeimizni nafaqat qaytarib bergani, ayni chog'da, bu boradagi intellektual salohiyatimiz va imkoniyatlarimizni tubdan oshirishning asosiy omili ham bo'lganini ta'kidlash lozim. Binobarin, mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ijodkorlarning mehnatini munosib rag'batlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Barkamollik sari intilgan har bir inson kitob bilan qadrdon do'st tutinishi shubhasiz. Kitob-zulmatda nur, sahroda suv topishni uqtiruvchi dono ustoz yanglig' o'ziga yaqin kelganlarning yo'lini yoritib turadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvarda imzolangan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" gi farmoyishida yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishida muhim zamin bo'luvchi kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan dolzarb vazifalar o'z aksini topgan. Yurtimizda kun sayin kitobxonlarga barcha sharoitlar, qulaylik va imkoniyatlar mujassam bo'lgan kutubxonalar soni oshib bormoqda. Bu ma'naviyati mustahkam, fikri teran o'zbek yoshlarining ertangi istiqboli uchun o'ziga xos imkoniyatlar kaliti demakdir.

Kitob ma'naviyat sarchashmasi

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilishi, shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo'ladi. Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning to'rtinchisi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda kitob mutolaasi, kitobxonlikni rivojlantirish borasida turli mazmundagi tadbirlar, kitob ko'rgazmalari tashkil etib kelinmoqda. Ammo hozirgi davr yoshlarni kitob mutolaasiga qiziqtirish uchun qanday yangi usullardan foydalanish mumkin?

-Yoshlar, asosan, nimalarga qiziqadi? Albatta, qiziqarli o'yinlarga. Kitob mutolaasi bo'yicha televidenie, radio orqali turli asarlar yuzasidan 1-4 sinf o'quvchilari o'rtasida o'qigan kitoblar asosida "Kitobsevar bolajonlar", yosh kitobxonlar o'rtasida 10-20 tagacha adiblar yashiringan kataklar asosida nomerlab belgilanadigan "Ilmga baraka" kabi tanlovlarni o'tkazish orqali yoshlarimizda kitobga bo'lgan mehrini shakllantirib borishimiz mumkin.

Insoniyatning eng buyuk kashfiyoti yozuv, kitob ekani haqidagi fikrni ko'p bor eshitganmiz va kitob taqdiri bilan chambarchasligini o'ylab, bunga iqror bo'lamiz. Darhaqiqat, kitob-insoniyatning yozma xotirasi, necha-necha avlod-ajdodlar aql durdonalari-yu yurak javohirlarining xazinasidir. Ayni vaqtda kitob tarixi tamadduniga erishgan xalq va millatning madaniy rivojlanish tarixi hamdir.

Taniqli yozuvchi, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta'riflaganidek, "Kitob-olamning birinchi mo'jizasi" u dunyodagi eng qimmatbaho xazina. Butun borliqni lol qoldirgan barcha mo'jizalar kitobga jamlangan noyob bilimlar samarasidir.

Kitobga yozilgan haq so'zni aslo yo'qotib bo'lmaydi. Kitobga o'lim yo'q, u manguликka daxldor. Jadid bobolarimiz bor-u yo'g'ini xalqni savodli qilishga, gazeta-jurnal chop ettirishga, maktablar ochishga sarflagan.

Tarixga nazar solsak, davlat boshlig‘i ziyoli bo‘lgan davrlarda xalqimiz barcha jabhalarda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Olim-u fuzalolar, shoir-u faylasuflarning dong‘i dunyoga doston bo‘lgandi...

Ularni buyuklik cho‘qqisiga kitob olib chiqqan. Kitobga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan davrda ona zaminimizdan yana allomalar yetishib chiqishiga ishonamiz.

Kitob haqida aytilgan fikrlar

Farzandlarimizni sog‘lom o‘stirish, ham ma’naviy ham jismoniy nuqtai nazardan havas qiladigan barkamol avlod qilib voyaga yetkazish , yoshlarni kitob orqali “parvoz” qilishga erishish, bolalarni kitobxonlikka qiziqtirish, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va kelajakka ishonch uyg‘otish kerak.

Men shunga aminman, kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q.

Shavkat Mirziyoyev

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish – buyuk maqsadlarimizga erishishning muhim kafolatidir.

Shavkat Mirziyoyev

Kitob har qanday bilimning yuragi va joni, har qanday fanning ibtidosidir.

Stefon Sveyg

Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q jahonda,
Hamrohing bo‘lgay u g‘amli zamonda

Abdurahmon Jomiy

Kitob – ko‘ngillar kaliti, u insonni ezgulikka yetaklaydi.

Koshifiy

Kitob javoni – ilm xirmoni,
Undagi har jild – aql darmoni.

Sh. Shomuhamedov

Kitob ekan xazina,
Unga bo‘lgin parvona.

Dil lazzati jamuljam,
Kitobdadur mujassam

Sh. Shomuhamedov

Kitoblar donishmandlikni yoyish qurolidir.

Ya. Komenskiy

Yaxshi kitob ko‘tarib olgan odam hech qachon yolg‘iz emas.

K. Goldoni

Odamlar kitob o‘qishdan to‘xtasalar, fikrlashdan ham to‘xtaydilar.

D. Didro

KITOB KO‘RGAZMALARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Maqsad: Turli kitob ko‘rgazmalari tashkillab, har bir kitob ko‘rgazmasi oldida suhbat, savol-javob, krassvord yechish, boshqotirma ishlash orqali kitobxonlarni kutubxonaga qiziqtirish va kitob o‘qilishiga erishish.

Dolzarb masalalarga va muhim unutilmas sanalarga bag‘ishlangan kitob ko‘rgazmalaridan kutubxonalarda keng foydalaniladi.

Kitob ko‘rgazmasi mazmuniga ko‘ra-universal, mavzuli; vaqtiga ko‘ra – doimiy, vaqtinchalik, uzoq muddatga mo‘ljallangan; xarakteriga ko‘ra-axborot, targ‘ibot shaklida bo‘ladi.

Xususiyati: ko‘rgazmalilik, ommaviylik, ta’sirchanlik, estetik zavq berish, hujjatni o‘z qo‘liga olish va yaqindan tanishib chiqish imkonining kengligi, hujjatni bevosita reklama qilish.

Ahamiyati: hujjatga qiziqish uyg‘otadi, mavzuga qiziqish uyg‘otadi, hujjatni targ‘ib qiladi, estetik ruhda tarbiyalaydi, kitobxonning fikr doirasini kengaytiradi.

Kamchiligi: hujjatlar yo‘qolishi, mavzuga oid hujjatlarning barchasini qamrab olishi mumkin emas.

MAVZULI KITOB KO'RGAZMALARI

Bu ko'rgazmalarning vazifasi bir mavzu bo'yicha eng qimmatli adabiyotlarni ko'rsatish, targ'ib qilish, kitobxonga mavzuni chuqur va tizimli o'rganishda yordam berishdir. Mavzuli kitob ko'rgazmalari mazmunan quyidagicha bo'ladi.

1. Davrning dolzarb masalalariga oid kitob ko'rgazmalari.

Ularning mavzusini siyosiy-iqtisodiy, fan-texnika va madaniyat masalalari tashkil etadi. Masalan: "Toshkent – Islom madaniyati poytaxti".

2. Muhim sanalarga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalari.

Yozuvchi, shoirlar, rassom, bastakorlar, davlat arboblari yubileylari, muhim sanalar munosabati bilan tashkil etiladi. Masalan: "Samarqand shahri – 2750 yoshda"

3. Mashhur kishilarning hayoti va ijodiga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalari.

Bu ko'rgazmalar birinchidan, yozuvchi, shoirning hayot yo'lini yoritib bersa, ikkinchidan kitobxonni uning asarlari, u haqidagi nashrlar bilan tanishtiradi. Bunda biografik ocherklar, xotiralar, asarlar to'plamlari, yozuvchi yoki shoirning ijodi to'g'risidagi tanqidiy asarlar qo'yiladi. "G'azal mulkingning sultoni", "Alisher Navoiy mutafakkir shoir", "Kamoliddin Behzod XXI asrda", "Abdulla Avloniy- ma'rifatparvar shoir" nomlarida ko'rgazmalar tashkil etish mumkin.

Kutilgan natija: Kutubxonaga biror marta ham kirmagan o'quvchi o'zi qiziqqan mavzuda kitob borligini bilgandan so'ng kutubxonaga a'zo bo'ladi va kitob olib o'qiydi. Natijada ko'rgazmalar orqali kutubxonaning a'zosi ko'payadi.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish kitobxonlarni kutubxonaga qiziqtirishda xizmat qiladi. Jumladan:

- Kitob haftaligi;
- Kitob savdo yarmakalari;
- Mahalliy shoir, yozuvchilar bilan ijodiy uchrashuvlar;
- Muhim va unutilmas sanalarga atab madaniy-ma'rifiy tadbirlar;
- Kitobxonlik tanlovlari va viktorinalar;

➤ Kitob taqdimotlari.

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, kutubxonachi hamkorlikda ish olib bormog'i maqsadga muvofiqdir. Shundagina, o'quvchilarni kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish mumkin.

O'quvchi-yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida "Bolalar kitobi olamiga sayohat" shiori ostida kitobxonlik haftaligi tadbirlarini tashkil etishni tavsiya qilamiz. Unda ochiq eshiklar kuni, yangi adabiyotlar ko'rgazmasi, mahalliy shoir va yozuvchilar bilan uchrashuv va davra suhbat, bellashuv va turli tanlovlar o'tkaziladi. Haftalik doirasida "Mening sevimli kitobim", "Badiiy adabiyotlar bilimdoni", "Mening sevimli ertak qahramonim", "Yetti kunda bir kitob", "Men sevgan adabiy qahramon", "Yosh kitobxonlar" kabi rasm, insho, viktorina yo'nalishida tanlovlar tashkil etish mumkin. Bundan tashqari, yuqori sinf o'quvchilarining quyi sinf o'quvchilariga "Mening sevimli kitobim" mavzusida o'qigan kitoblari haqida so'zlab berishlari, "Men kitobni qanday rasmlar bilan to'ldirgan bo'lar edim", "Kitobga boshqacha yakun o'ylab top", "Eng yaxshi kitobxon sinf", "Yilning eng yaxshi kitobxoni" kabi kitob taqdimoti, ovozli o'qishlar va tanlovlarni o'tkazishni tavsiya qilamiz.

VIKTORINALAR TASHKIL ETISH METODIKASI

Viktorinalar – savol-javob o'yinlari badiiy asarlarni targ'ib qilishning eng qiziqarli shakli bo'lib, undan kutubxonalar, yoshlar bilan ish olib boruvchi muassasalar foydalanadilar. Savol-javob o'yinlari, ayniqsa maktab va bolalar kutubxonalari faoliyatida keng qo'llaniladi. Ulardan ko'zlangan maqsad yoshlarning bilim saviyasini oshirish, mustahkamlash, tanlangan mavzuga qiziqish uyg'otishdan iborat. Viktorina uchun 10-15 tadan savol tanlanib, 30-40 daqiqaga mo'ljallanadi. Uni tayyorlashda kitobxonlarning qiziqishi, bilim saviyasi e'tiborga olinadi.

Viktorinalar mazmuniga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Bir muallif ijodiga bag‘ishlangan savol-javob o‘yinlari;
2. Bir asarga bag‘ishlangan savol-javob o‘yinlari;
3. Mavzuli viktorinalar.

Viktorinani tayyorlash uchun avval mavzu tanlanadi. Mavzuni tanlash uchun tadbirning maqsadi, kitobxonlar guruhi, ularning qiziqishi, o‘qish maqsadi va bilim saviyasini aniqlab olish, kunning dolzarb masalalarini hisobga olish zarur. Agar savol-javob o‘yinlari maktab o‘quvchilari orasida olib boriladigan bo‘lsa, u maktab dasturi hamda maktabdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarining mavzusiga bog‘lanishi zarur. Bu o‘quvchilarning o‘quv dasturi asosida yana ham kengroq bilim olishlarini ta‘minlaydi, ularning mustaqil bilim olishlariga yordam beradi, o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmasini, adabiyot tanlash, fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmasini tarbiyalaydi.

Viktorina badiiy adabiyotga qiziqishni yana ham oshiradi, kitobxonning estetik didini shakllantiradi, o‘qilganni yodda saqlab qolishga o‘rgatadi.

UMUMTA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARI UCHUN ONLAYN TANLOVLAR TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAXMINIY VIKTORINA SAVOLLARI

Yozuvchi G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asaridan savollar

1. “Xotin qozonning qopqog‘ini ochdi baliqday bo‘lib, oppoq laganda moshkichiri chiqdi, o‘rtaga qo‘ydilar”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan va uning muallifi kim?

(G‘afur G‘ulom “Shum bola” asaridan)

2. “Shum bola” qissasida shum bola Sariboyga qanday yomon odati borligini oldindan aytadi?

(Har zamonda beixtiyor yolg‘on gapirib qo‘yishi).

3. “Shum bola” qissasida shum bola pochchasiga qanday zarar keltirgan?

(Avaylab boqayotgan qimmatbaho qushlariga qattiq, suzma ichirib harom o‘ldirib qo‘ydi.)

4. “Shum bola qissasida” xo‘jayinlarning ichida eng xudo urgan badbaxti ziqnasi kim edi?

(Sariboy)

5. “Hazrat bo‘lsa, o‘zini umr bo‘yi o‘likdan boshqa narsani yuvmagan kishiday qilib ko‘rsatishga harakat qilar edi”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan va uning muallifi kim?

(Shum bola)

6. “Shum” bola qissasida Sariboyning eng yomon odati nima edi?

(Sariboy xizmatkorlarining yaxshi gapiga ham yomon gapiga ham “Indan keyin-chi” deb turardi. Agar savoliga umuman javob bermasa, boy tomonidan jazolanadi.)

7. “Shum bola” qissasida Sariboy shum bolaning qaysi gapini eshitgandan keyin choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yordi-yu, soqolini yulib, dodlab yig‘lamoqa tushdi?

(Kenjatoy o‘g‘li Bo‘riboyvachchaning o‘lganini eshitib.)

8. “Shum bola” qissasida xaroba uyni nashavand bangilar yig‘iladigan, takyaxonaga aylantirgan, o‘zicha xudojo‘y qahramon nomi nima?

(Hoji bobo)

9. Shum bola nima sababdan uydan chiqib ketadi?

(Onasini xafa qilib qo‘ygani uchun)

10. Shum bola necha yil turli joylarda yuradi?

(Yarim yildan ortiq)

Qirg‘iz yozuvchisi Ch.Aytmatovning “Oq kema” asaridan savollar

1. “Oq kema” asaridagi bola qaysi o‘simliklarni eng birinchi dushman, qaysi gullarni eng aqlli va quvnoq gullar deb ataydi?

(Chaqirtikanak va Pechakgullar)

2. “Oq kema” qissasida bolaning nechta ertagi bo‘ladi?

(Ikkita, biri o‘ziniki bo‘lib uni hech kim bilmasdi, ikkinchisini esa bobosi so‘zlab bergandi.)

3. Oq kema asaridagi Bolakayning orzusi nima? Va nega aynan shu orzuni ko‘ngliga tukkan?

(Baliqa aylanib, oq kemaga yetib borib matros otasini ko‘rmoqchi edi.)

4. “Oq kema” qissasidagi qorovulxona qayerda joylashgan edi?

(SanToshda)

5. “Oq kema” asarida pechakgullar shivirlayotganida qaysi hasharot quloq soladi?

(Chumoli)

6. “Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy, Sendan aziz tuproq bormi, Enasoy? Sendan chuqur dard g‘am bormi, Enasoy, Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy?” Parcha qaysi asardan olingan?

(Oq kema)

7. “Oq kema” asarida bobosini aytishicha, bola qaysi avlodga mansub edi?

(Bug‘u avlodiga)

8. “Oq kema ” asaridagi bola toshlarga qanday nomlar qo‘ygan?

(Tuya, egar, bo‘ri, tank)

9. “Oq kema ” asaridagi bolaning eng sevimli toshi qaysi?

(Tank)

10. O‘z bolang bo‘lmasa bir balo, bolangda bola bo‘lmasa ming balo. “Oq kema” qissasidagi ushbu fikrlar kimga tegishli?

(Buvisiga)

“Kitob mening do‘stimsan!” tadbir ssenariysi

1-boshlovchi: Assalomu alaykum hurmatli ustozlar. Har ishda chaqqon kichkintoylar, aziz kitobxonlar.

2-boshlovchi: Mana bugun biz “Kitobxonlar bayrami”ga bag‘ishlab “Kitob mening do‘stimsan” tadbirini uyushtirdik. Bugungi davramizni ochiq deb e‘lon qilamiz.

1-boshlovchi: Inson ma‘naviyatining yuksalishida, dunyoqarashining shakllanishida kitobning o‘rni beqiyosdir. U nafaqat bilim bulog‘i, tafakkur xazinasi, balki insonga do‘st, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi tarbiyachi hamdir. Shuning uchun ham kitob qadrlanadi.

2-boshlovchi: U yuraklarni-yuraklarga tutashtiruvchi, qalbga ajoyib nur, aqlga qudrat beruvchi vositadir. Kitobga oshno bo‘lgan odam o‘z umrini chiroyli o‘tkazishga, odamlarga faqatgina yaxshilik tilashga harakat qiladi.

1-boshlovchi: Allomalar va buyuklar ham barcha muvaffaqiyatlari, yaratgan kashfiyotlari uchun kitobdan minnatdor bo‘ladilar.

1-o'quvchi:Kitob o'qish to'xtasa, tafakkur to'xtaydi, ma'rifat o'rnini jaholat egallaydi.Uning kelib chiqish tarixi haqida bilishni istasangiz,bizga quloq tuting.

2-o'quvchi:Kitob bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan. Shumerliklar, bobilliklar,ossuriyaliklar kitobni loydan tayyorlashgan.

3-o'quvchi:Buning uchun yumshoq loyga uchli yog'och bilan maxsus belgilar tushirishgan.So'ngra oftobda quritishgan yoki olovda pishirishgan.

4-o'quvchi:Kitoblar,hatto kutubxonalar maxsus sopol taxtachalardan tashkil topgan.Shoh Ashshurbanipalga qarashli milloddan avvalgi VII asrga mansub shunday kutubxonani arxeologlar bundan yuz yil muqaddam topishgan.

5-o'quvchi:Bizning ko'zimiz o'rganib qolgan kitobning hozirgi shakli keyinchalik paydo bo'lgan. XV asrda esa chop etish uskunasi ixtiro qilindi.O'zbek tilidagi birinchi toshbosma kitob "Shohimardon" 1871-yili nashr etilgan. 1874 –yili Xiva shahrida Muhammad Rahimxon Feruz tomonidan litografiya korxonasi qurildi.

1- o'quvchi: Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q, undan ortiq g'amxo'r yo'q, unda yuz rohat bor, hech qachon ozor yo'q.

2-o'quvchi: Go'zal, dono xatti-harakatdan tug'iluvchi ezgu saxovatlarimizning asosiy qismi uchun kitobdan minnatdormiz.

3-o'quvchi:Taraqqiyotning umumiy ko'lami-da har bir xalqning o'zni o'sha xalq o'g'itlari, kitoblarning soni bilan belgilanadi.

4- o'quvchi:Kitobsiz uy — jonsiz toshday gap.

5- o'quvchi:Kitoblar xazinası, hayotning o'ziga xos badiiy ko'zgusidir.

1-o'quvchi: O'qi, bolam, kitobing ezgulikka boshlaydi,
O'qisang, qattiq ko'ngling, bolam, biram yumshaydi,
Bog'laring, chamanlaring gul ochadi, yashnaydi,
Hayot nomli laylaklar yuragingda qishlaydi,
Avlodlaring, Vataning, bolam, mangu yashaydi,

Kir libosin egnidan dunyo yechib tashlaydi,
Vatansizlar, xoinlar, albat, labin tishlaydi,
Tinchlikni ko‘rolmaslar oxir boshin qashlaydi.

2-o‘quvchi: Bilimdonlar tafakkur chirog‘ini yoqadi,
Kelajakning qo‘llari eshigingni qoqadi,
Osmoningda oy, yulduz jilmayadi, boqadi,
Kitobingdan yaxshilik ziyo bo‘lib balqadi,
Qalb atalmish daryoda sohir hislar oqadi,
Dilginang chashmasida mehr suvdek qalqadi,
Ilmsizlik odamni ilondayin chaqadi,
Ko‘zlaringga javdirab dunyo hayron boqadi.

3-o‘quvchi: O‘qi, bolam, o‘qisang, yo‘llaring bo‘lgay ravon,
To‘solmaydi yo‘lingni uchragan turli dovon,
Obod, ozod diyorda surasan davr-u davron,
Dilingni zabt etolmas hasad, shubha-yu gumon,
O‘qiganni Yaratgan, albat, qo‘llaydi, ishon,
Turli balo-qazodan hur bo‘lasan, ham omon,
Dilginang osmonida charaqlar oydek vijdon,
Vataningga, farzandim, gul davron keldi, ishon.

1-boshlovchi: — Darhaqiqat, kitobni oftobga qiyos etishlari bejiz emas. U dillarni uyg‘otib munavvar etish bilan birga mavjudot sirlaridan ogoh qiladi. Yashashdan saboq beradi, qiyinchiliklarni yengish yo‘llarini, yaxshilik bilan yomonlikni, oq bilan qorani ajratishga o‘rgatadi.

2-boshlovchi: — Kitob zehnlarni charx-lab, bilimlar xazinasiga eshik ochadi. Kitob bayrami nur quyosh bayramidir. Kitob yolg‘izligingda hamroh, g‘amginligingda tabib bo‘ladi. Kitob uni ko‘p o‘qigan odamga omad, quvonch olib kelishi, shub-hasiz. Odamlarning yaxshi kunlarida kitobning hissasi bor.

1-boshlovchi: — Barcha ilmparvar, odil podsholarning saroylari qoshida kutubxonalari bo‘lgani bejiz emas. Odamzod kitobsiz johilga aylanadi, kitob nuridan bahra olmasa, jaholat bot-qoqiga g‘arq bo‘ladi.

Endigi navbatni “Kitob” rivoyati nomli sahna ko‘rinishiga beramiz.

-O‘tgan zamonda bir podsho bo‘lgan ekan. Kunlardan bir kun u vazirlarini chaqirib ularga:

Podsho: “Dunyoda eng zo‘r, kerakli va hamma narsadan xabardor qiluvchi narsa nima?”, — deb savol beribdi.

Vazirlar: Vazirlar saroy a'yonlaridan so'rashibdi. Kishilar u deyishibdi, bu deyishibdi. Birovi dunyoda eng zo'ri qilich desa, ikkinchisi non debdi. Hamma o'z bilganini aytibdi. Bu xabarni vazirlar podshoga yetkazishibdi. Shunda podsho ularning bu javobi noto'g'ri ekanligini aytibdi.

Vazirlar: Shunda vazirlar: – Podshohi olam bizga muhlat bering, — deyishibdi.

Podsho: Sizlarga uch kun muhlat beraman, — debdi darg'azab bo'lib.

Qo'shni podsholikda ta'rifi yetti iqlimga ketgan donishmand yashar ekan. Undan vazirlardan birining xabari bor ekan. Vazir podshoning savollariga shu donishmand javob bera olishini bilibdi va uni izlab topibdi. Vazir unga podshoning savollarini aytibdi.

Donishmand hech ikkilanmay dunyoda eng zo'r, kerakli va hamma narsadan xabardor qiluvchi narsa bu – kitob, – deb javob beribdi. Donishmandning javobi podshoga ham ma'qul tushibdi.

1-boshlovchi:

Kitob do'sting bo'lsin, undan bilmaganing bilib ol,
Dunyo ko'rib olim bo'lay desang faqat bilim ol.

2-boshlovchi:

Kitob quyosh bo'lsa, maktab bir jahon,
Unda kamol topar haqiqiy inson.

1-boshlovchi: Qadimda ota-bobolarimiz kitobni qo'llariga olgach, uni avval o'pib, keyin ko'zlariga surtganlar. Uning bir varag'ini ham yirtmaganlar. Har xil joylarga tashlamaganlar. Kitobni muqaddas deb bilganlar.

2024-2025-yangi o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalarida yosh avlodni kitobxonlikka jalb qilish borasidagi vazifalar

1. Kitobxonlik to'garaklar faoliyatini kuchaytirish.
2. Viloyatning chekka hududlariga zamonaviy va o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatadigan kitoblar yetkazib berish.
3. O'quvchilarning respublika miqyosida o'tkaziladigan tanlovlarda ishtirokini ta'minlash.
4. O'quvchilar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlikni keng targ'ib qiluvchi innovatsion tadbirlarni o'tkazish.

5. O‘quvchilar o‘rtasida o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalarini doimiy targ‘ibot qilish.

6. Maktab kutubxonalarida turli xil aksiya va xayriya tadbirlari o‘tkazish

Kutubxona ishini rivojlantirish, o‘quvchilarni bu maskanga ko‘proq jalb etish, u yerda ma'naviy-madaniy tadbirlarni o‘tkazish orqali uning nufuzini oshirish barchamizning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifamizdir.

Xulosa qilib aytganda, komil inson bo‘lib yetishish uchun kitobning o‘rni beqiyosdir. O‘quvchilarni kitob bilan ishlashga odatlantirish ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kitobxonlik yoshlarning ma'naviy boyligini oshiradi, ularni mehnat va ijodiy yo‘lga boshlaydi. Kitob hayotning ulug‘vorligini anglab olishga, u haqida mustaqil fikr yuritishga yordam beradi.

Foydalanilgan oynoma va ro'znomalar

1. Bekimbetova D

Yaxshi kitob-kamolot, Yomon kitob-malomat.

// Kitob dunyosi-2020 №17-1B.

2. Omon M.

Oltin ko'prik: kitob bayrami haqida.

// Kitob dunyosi-20 21№7-1B.

3. Karimov D.

Kitobxonlik kitobsevarlikdan boshlanadi: Yunusobod tuman Axborot-Resurs Markazi xaqida.

// Ma'rifat-2022 №84.-4B.

4. G'ulomova N.

Kitobxonlik kechalari. U qanday tashkil etiladi?

// Ma'rifat-2023 №47.-8-9B.

5. Kitobsevarlikni millatning sifatlaridan biriga aylantirishimiz lozim: axborot kutubxona jurnali:

// Infolib.-2019.№2.-2B.

6. Jalilov, Sh.

Kitob-tafakkur qanoti(kitob haqida)/ Sh.Jalilov

//Xalq so'zi.-2019.-№1000.-3B.

7. Rasulova, D. Kitobim – ustozim “Ta'kid” / D.Rasulova

// Ma'rifat-2022.№54.-9B.

8. Jumaeva, Sh. Kitobxonlikni keng targ'ib qilish “Yoshlarni kitobxonlikka chorlayapmiz” / Sh.Jumaeva

// Buxoronoma.-2024.-№53.-4B.